

MATEMATIKANING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Lapasova Marg`uba

To`xtamurodova Maxliyo

Akromova Nafosat

Oqulova Mohinur

O'zMU Jizzax filiali Amaliy Matematika fakulteti talabalari

Sharipova Sadoqat Fazliddinovna

Ilmiy rahbar: O'zMU Jizzax filiali katta o'qituvchisi

Annotasiya: Matematika -XXI asrda Axborotning tez sur'atlar bilan tarqalishi, raqamlar texnologiyalar, iqtisodiyotni raqamlashtirish va insonlar hayotidagi asosiy omildir! Matematikaning hayotimizdagi ahamiyati esa beqiyos chunki u siz bugungi kunimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Kundalik turmushimizda foydalanmaydigan barcha bosqichlarda matematika o'rni bor.

Kalit so'zlar: Matematika, arifmetika, geometrik shakllar, raqamlashtirish, xisoblash mashinalari, arxitektura namunalari, matematik al-Xorazmiy, astronomiya.

Qadimgi tosh asrida odamlar hali g`orlarda yashagan va hayoti hayvon hayotidan deyarli farq qilmaydigan davrdan boshlab, odamlar ov qurollarini taylorlash, o`zaro aloqa vositali bo`lgan tilni vujudga keltirish borasida, keyinroq esa o`ziga e`tibor berishi. Yashash uchun ne`matlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yishi, yerni ishlay boshlashi boshqacha aytganda tabiatga nisbatan insonning aktivligini oshishi sonli miqdorlar va fazoviy munosabatlarni tushunishda ilg`or qo`yilgan qadam bo`ladi. Yashashni o`troq holga o`tishi, qishloqlar paydo bo`lishi, hayvonlarni o`rgatilishi, ekinlar ekish, mehnat qurollarini yaratilishi bu protsessni yanada tezlashtirdi. Albatta matematik bilimlarni shakllanishi turli xalqlarda o`ziga xos usullar bilan shakllandi. Eramizdan oldingi VI-V asrlargacha davom etib, bu paytga kelib matematika mustaqil fan sifatida shakllandti. Bu davrning boshlanishi esa, o`tmish ibridoib davrga qarab boradi. Bu davrda matematika hali fan sifatida shakllanmagan bo`lib, qilingan ishlarning xarakteri asosan kuzatish va tekshirish natijalari asosida materiallar to`plashdan iborat bo`lgan. Matematika tarixi — matematika tarixining bir nechta tasniflari mavjud bo`lib, ulardan biriga ko`ra matematik bilimlarning rivojlanishi bir necha bosqichlarga bo`linadi:

1. Haqaqiy obyektlar va har hil obyektlar to`plamlarining idealizatsiyasi sifatida geometrik shakl va raqam tushunchasini shakllantirish. Turli xil sonlarni,

uzunliklarni, maydonlarni va hajmlarni solishtirish imkonini bergen sanash va o`lchashning paydo bo`lishi.

2. Arifmetik amallarning ixtirosi. Arifmetik amallarning xossalari, oddiy figuralar va jismlarning maydonlari va hajmlarini o`lchash usullari to`g`risidagi bilimlarni empirik (sinov va xatolik yo`li bilan) to`plash. Antik davrdagi shumer-babil, xitoy va hind matematiklari bu yo`nalishda ancha oldinga siljishgan

3. Qadimgi Yunonistonda mavjud bo`lganlar asosida yangi matematik haqiqatlarni qanday olish mumkinligini ko`rsatadigan deduktiv matematik tizimning paydo bo`lishi. Qadimgi yunon matematikasining toj yutug`i Yevklidning elementlari bo`lib, u ikki ming yil davomida matematik qat`iylik standarti rolini o`ynagan

Tarixdan ma'lumki, matematika hayotda eng kerak va asosiy fan hisoblanadi. Bu fan rivoji uchun ko`plab daholar o`z hissalarini qo'shishgan. Shulardan Albert Eynshteyn (1879-1955), Issak Nyuton (1642-1727), Pifagor (miloddan avvalgi 287-212yillar), Evklid (miloddan avvalgi 365-275 yillar) yurdoshlarimizdan bo`lmish al-Xorazmiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek va Farobiylar ham bu fan uchun salmoqli mehnat qilishgan. Bugungi kunimizni matematikasiz tassavur qilib bo`lmaydi . Ayniqsa raqamli texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda. Biz bu ajoyib fanni juda ko`p jabhalarda qo'llaymiz! Arxitektura namunalariga qaraydigan bo`lsak ularning asosini geometrik shallar va hisob-kitoblar tashkil etadi . Yurtimiz ko`plab daholarni yetishtirgani boyis o`rta asrlarda qurilgan me`moriy obidalarimiz bugungi kungacha insonlar e'tibor markazida. O`rta asrlarda esa fan ko`p jihatdan boy-feodallarning manfaatiga, denga bo`ysundirilgan. Bundan tashqari temir yo`llar qurishda , havo kemalari harakatlanish sxemalarini yaratish, ko`slik kemalar va koinotni o`rganishda ham matematikaga tegishli bo`lgan Ehtimollar va Graflar nazaryasidan foydalamiz. Raqamli texnika va texnologiyalar, bugungi kunda shiddat bilan o'sayotgan soha IT dasturlashning asosini matematika tashkil qiladi.

Raqamlar jadvali

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yevropacha (g`arbiy arablardan kelib chiqqan) | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| Arabcha-hindcha | ٠ | ١ | ٢ | ٣ | ٤ | ٥ | ٦ | ٧ | ٨ | ٩ |
| Sharqiy arabcha-hindcha (Fors va urdu) | ۰ | ۱ | ۲ | ۳ | ۴ | ۵ | ۶ | ۷ | ۸ | ۹ |
| Devanagaricha (hind) | ० | १ | २ | ३ | ४ | ५ | ६ | ७ | ८ | ९ |
| Xitoycha | ○ | 一 | 二 | 三 | 四 | 五 | 六 | 七 | 八 | 九 |
| Tamilcha | க | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ | ஒ |

Dasturlash-kompyuterlar va boshqa mikroprotsessori elektron qurilmalar uchun tuziladi, ularni tadbiq qilishdan oldin sinash va o`rganish jarayonidan iborat

bo'ladi. Hozirgi kundagi bunday yangiliklar dasturlash tillari (C++, Python, Java, PHP) yordamida amalga oshiriladi.

Matematika necha asrlar o'tsa ham o'zining qiymati va mavqeyini yo'qotmaydigan ,aksincha kundan -kunga yangidan yangi o'zgarishlar bilan takomillashayotgan fanlar qatoridadir.Qachonlardir insonlarning kunlik ehtiyojlari uchun hizmat qilgan bu fan ,bugungi kunda hayotning asosiy qismi ,ajralmas bo'lagi bo'lib ulgurgan.

XULOSA: Xulosa o'rnila aytish mumkinki, Telefon va gadgetlar, internetsiz hayotimizni tassavur qila olmaydigan bir davrda yashamoqdamiz va bu xol kundan-kunga murakkablashib bormoqda . Insonlarning turmush -tarzi yengillashgani sari yangiliklar yaratishga bo'lgan talab va takliflar sharoitlar ham ortib bormoqda . Shu o'rinda aytish mumkinki Hayotimizning hamma jabhalarda matematika bu-asos!

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. matematika-dunyosi.ulkansayt.uz
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. S.Otaqulov "Chiziqli algebra asoslari va uning tadbiqlari" T.<<Fqan texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi>,20021.212b.
4. Isroilov M.<<Hosoblash metodlari>>,T.,"O'zbekiston",1997.
5. Fazliddinovich S. X., Fazliddinova S. S. МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ВИЗУАЛИЗАЦИЯЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 289-292.
6. Шарипов Хуршид Фазлидинович, & Шарипова Садокат Фазлидиновна. (2022). РЕАЛИЗАЦИЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПРИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВЕ ТЕОРЕМЫ ЭЙЛЕРА В ПЛАНИМЕТРИИ И ЕЕ АНАЛОГ. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 373–377. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/207>.
7. Шарипова С. Ф., Олтмишев А. СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. – 2022.